

IMOM BUXORIY HAYOTI VA ASARLARI XUSUSIDA

Tolibova Shaxzoda

Osiyo xalqaro universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19006124>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati va islom ilmi-fanidagi o'рни tahlil qilinadi. Unda buyuk muhaddisning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari, hadislarni to'plash va saralashdagi ilmiy uslublari hamda mashhur asari "Al-Jome' as-Sahih"ning ahamiyati yoritiladi.

Shuningdek, allomaning ilmiy merosi, uning islom madaniyati va ma'naviy hayotiga qo'shgan hissasi haqida ham fikr yuritiladi.

Annotation. This article analyzes the life, scientific activity, and contribution of Imam al-Bukhari to Islamic scholarship. The study highlights his role in the development of hadith science, his strict methodology in collecting and verifying hadiths, and the significance of his famous work *Al-Jami' as-Sahih*. The article also discusses the importance of his scholarly heritage and its influence on Islamic culture and intellectual history.

Аннотация. В данной статье рассматриваются жизнь, научная деятельность и вклад Имам аль-Бухари в развитие исламской науки. Особое внимание уделяется его роли в формировании науки хадисов, методам отбора и проверки хадисов, а также значению его знаменитого труда *Аль-Джами ас-Сахих*. Также анализируется научное наследие ученого и его влияние на исламскую культуру и духовную жизнь.

Kalit so'zlar: Imom al-Buxoriy, hadis ilmi, muhaddis, Sahihi Buxoriy, islom ilmlari, hadis to'plami, islom madaniyati, ilmiy meros.

Keywords: Imam al-Bukhari, hadith science, muhaddith, Sahih al-Bukhari, Islamic scholarship, hadith collection, Islamic culture, scholarly heritage.

Ключевые слова: Имам аль-Бухари, наука хадисов, мухаддис, Сахих аль-Бухари, исламские науки, сборник хадисов, исламская культура, научное наследие.

Islom olamida hadis ilmining rivojlanishida beqiyos xizmat qilgan buyuk allomalardan biri Imom al-Buxoriy hisoblanadi. U Qur'oni karimdan keyin eng ishonchli manba sifatida e'tirof etiladigan hadislar to'plamini yaratgan ulug' muhaddisdir.

Uning ilmiy merosi nafaqat musulmon dunyosida, balki jahon ilm-fan tarixida ham muhim o'rin tutadi. Imom al-Buxoriy (to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) 810-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan.

Yoshligidan ilmga chanqoq bo'lib ulg'aydi. Otasi Ismoil ibn Ibrohim ham hadis ilmini yaxshi bilgan, taqvodor inson bo'lgan. Otasining erta vafot etishiga qaramay, onasi uni ilm olishga undab tarbiyalagan.

Imom al-Buxoriy juda yoshligidan hadislarni yod olishga kirishgan. Rivoyatlarga ko'ra, u o'n yoshidayoq hadis ilmini chuqur o'rganishni boshlagan, o'n olti yoshida esa ko'plab hadislarni yod olgan va mashhur muhaddislarning asarlarini mutolaa qilgan. Ilm izlab u ko'plab mamlakatlarga safar qilgan.

Jumladan, Makka, Madina, Basra, Kufa, Bag'dod, Damashq va Misr kabi markazlarda bo'lib, mashhur ulamolardan saboq olgan. Imom al-Buxoriy hadislarni to'plash va ularni tekshirishda juda qat'iy ilmiy uslub qo'llagan.

U hadis rivoyat qilgan shaxslarning hayoti, ishonchliligi va hadisning uzluksiz ravishda yetib kelganligini sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan. Shu sababli uning hadislar to'plami eng ishonchli manbalardan biri sifatida tan olingan.

Uning eng mashhur asari **“Al-Jome' as-Sahih”** bo'lib, u ko'pincha **“Sahihi Buxoriy”** nomi bilan tanilgan. Ushbu asar musulmon olamida Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli kitoblardan biri hisoblanadi.

Kitobga minglab hadislar kiritilgan bo'lib, ular turli mavzularga – e'tiqod, ibodat, axloq, muomala va ijtimoiy hayot masalalariga bag'ishlangan. Imom al-Buxoriy nafaqat **“Sahihi Buxoriy”**, balki boshqa ko'plab asarlarning ham muallifi hisoblanadi.

U hadis ilmi, roviylar tarixini o'rganish va hadislarini tasniflashga oid bir qator ilmiy asarlar yozgan. Uning ilmiy merosi keyingi avlod muhaddislari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Imom al-Buxoriy hadislarini tanlashda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. U hadisni kitobiga kiritishdan oldin tahorat olib, ikki rakat namoz o'qib, Allohdan hidoyat so'ragani haqida rivoyatlar mavjud. Bu holat uning ilmga va diniy mas'uliyatga qanchalik jiddiy yondashganini ko'rsatadi.

Buyuk muhaddis 870-yilda Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida vafot etgan.

Bugungi kunda uning maqbarasi ziyoratgoh sifatida mashhur bo'lib, musulmonlar tomonidan e'zozlanadi. Bu maskan Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi nomi bilan tanilgan.